

## O'RTA ASRLARDA KO'HNA TOXARISTONNING MUDOFAA DEVORLARI

**Abdullahayev Sanjar Asadullayevich**

Termiz Davlat Universiteti Arxeologiya mutaxassisligi

2-bosqich magistranti

[Sanjarabdullahayev2706@gmail.com](mailto:Sanjarabdullahayev2706@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Shimoliy Toxaristonning mudofaa inshootlari haqida. Temir darvoza, Yuqori Panjob devorlari, Yuqori Panjob devorlari va Sherobod Dahanasidagi tosh devorlar kabi mudofaa inshootlari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** Toxariston, Termiz, Mudofaa inshootlari, Temir darvoza, Yuqori Panjob devorlari, Yuqori Panjob devorlari, SHerobod Dahanasidagi tosh devorlar.

### ABSTRACT

*This article is about the defense facilities of North Tokharestan. Information about defensive structures such as Iron Gate, Upper Punjab Walls, Upper Punjab Walls and Stone Walls at Sherabad Dahana is given.*

**Key words:** Takharistan, Termiz, Defense structures, Iron Gate, Walls of Upper Punjab, Walls of Upper Punjab, Stone walls in Sherabad Dahana

### KIRISH

Qadim davlatchiligimiz tarixini o'rganishda, uning chegaralari muammosi o'ziga xos dolzarb masalalardan biridir. Bu o'rinda ayniqsa chegara inshootlarining qoldiqlarini o'rganish, ularning tuzilishi, sanasi va faoliyati bosqichlarini aniqlash muhimdir. Chegara inshootlari, devorlari qoldiqlari davlat hududini belgilab, uning hududiy daxlsizligi bosqichlarini ham ko'rsatib beradi. Ko'p hollarda voha devorlari asosan ko'chmarchilar yurishlariga qarshi mudofaa inshooti sifatida qurilgan. Bunga misol qilib Devori Ko'ndalang, Kanpir devol, Kanpirak va boshqalarni keltirish mumkin (Muxamedov, 1961; Adylov, 1998).

Baqtriya-Toxariston xududida ham aynan voha devorlari qoldiqlariga qiyoslash mumkin bo'lgan inshootlar mavjud bo'lib, ular ham davlat xududiy belgilari hamda ko'chmarchilarga qarshi qurilgan inshootlar sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu inshootlar qoldiqlari ilk bor XX asrning 60-yillarida G.A.Pugachenkova tomonidan Denov tumanining Sina qishlog'i yaqinida qayd qilingan (Pugachenkova, 1963). 1985 yilda Temir darvoza devorlari ochilib, Kushonlar sultanatining shimoliy chegaralari borasidagi asriy tortishuvlar barham topdi (Rtveladze, 1986). So'ngra 1989 yilda SHerobod dahanasida va Ko'xitang tog'larida ochilgan tosh devorlar

qoldiqlari mazkur xudud ham ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlar tutashgan o‘lkalardan ekanligini ko‘rsatmoqda.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Temir darvoza hududi savdo yo‘lidagi harbiy va strategik jihatdan muhim manzilgoh hisoblanadi. Ko‘hitang tog‘laridagi tosh devorlar zanjiri Temir darvoza devorlaridan boshlanadi. Tosh devorlar va nazorat qal’alari qayd qilingan keyingi manzil Sayrob qishlog‘i yaqinidagi Uzundara hududi bo‘lib, unda Qal’a va tosh devorlar qoldiqlari aniqlangan (Rtveladze, 1986; 2001; Raxmonov, 1995; 2001). Yana shunday nazorat manzillaridan biri Sayrob qishlog‘ining yuqorisida Parchsoyda ham mavjud. Yuqori Panjob qishlog‘idagi tor dara o‘zanida ham tosh qalamalari bilan nazorat manzili qoldiqlari bor. Xuddi shunday tosh devorlar qoldiqlari Tangi qishlog‘I yuqorisida Tangidarani to‘sib turadi (Rahmonov, 2001). Ko‘hitang tog‘laridagi tosh devorlar zanjirini SHerobod dahanasidagi tosh devorlar yakunlaydi (Raxmonov, 1989, 2001). Shu devorlarning davomini yuqorida qayd qilingan Sina qishlog‘i yaqinidagi Kofirqal’a devorlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Yuqori Panjob devorlari. Tosh devorlar zanjirining keyingi bo‘g‘ini yuqori Panjob qishlog‘iga kirish joydagi tor dara og‘zida mavjud. Bu daradan soy va yo‘l o‘tadi, uning boshqa qismlari tosh devor bilan to‘sib qo‘yilgan. Tosh devor dara og‘zining qoyaga tutash qismida qurilgan bo‘lib, amalda boshqa qulay o‘tish joyi yo‘q. Tosh devor va dara atrofidan topilgan sopol parchalari Iskandar yurishlarigacha, milodgacha V-IV asrlarga oid. SHu bilan birga yunon-baqtriya, kushonlar va o‘rta asrlar davri sopol parchalari ham uchraydi.

Yuqori Panjob devorlari. Tangidara mahalliy aholi o‘rtasida Tangidevol deb ham ataladi. Tangidara devori daraning eng tor qismida joylashgan bo‘lib, u hozirda soyning chap sohilidan tikqoyalargacha yaqqol ko‘zga tashlanadi. Soyning o‘ng qirg‘og‘i devor qarshisida bevosita qoyaga taqaladi. Tosh devor harbiy qurilish an‘analaridan kelib chiqib, o‘z vaqtida darani qisman to‘sib turgan pastak tabiiy tizma ustiga qurilgan. Devorning asosiy qismini hozirda soy yuvib ketgan bo‘lsada, u 30 metrlar uzunlikda saqlanib qolgan. U tartibli qalangan toshlardan tashkil topgan bo‘lib, hozirda uning qalinligi qulab tushgan harsanglar tarqalgan qismi bilan hisoblaganda 10-15 m tashkil qiladi. SHunday bo‘lsada, devor aylanma yo‘l orqali daraga kirish joyida qurilganligi daraning strategik muhim manzil bo‘ganligini ko‘rsatadi.

Sherobod Dahanasidagi tosh devorlar. Tavka qal’asining qarama-qarshi tomonida, daryoning o‘ng sohilidan Sariqamish tog‘ tizmalarining davomi boshlanadi, daradan daryo o‘zani va Katta O‘zbek Trakti avtomobil yo‘li o‘tadi. Qadimiy tosh

devor tog‘ tizmasi bo‘ylab g‘arbgan tomon 1 km masofada saqlangan. Dastlab u shimolga qaragan jarlik qirg‘og‘i bo‘ylab, so‘ngra esa tizma ustida davom etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Абдуллаев К. О северных рубежах государственной границы Бактрии в эллинистическую эпоху // РА. № 1. М., 1998, с. 54-60.
2. Адылов Ш.Т. Истоки и возникновение цивилизации и государственности в Западном Согде // ОНУ, № 4-5, 1998.
3. Бабур З.М. Бабур-наме. Перевод М.Салье. Ташкент, 1993, с. 464.
4. Рахманов Ш.А. Стена таможенного пункта а Шерабадской Дахане // Археология Средней Азии. Ташкент, 1989.